




## ISTE' M O L B O Z O R I

2018 yil yanvar

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 %ga kamaydi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,6 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,5 %ni tashkil qildi.

*2018 yil yanvar oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,  
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (40,1 foiz), Sirdaryo (11,9 foiz), Sardoba (8,1 foiz) va Guliston (8,1 foiz) tumanlari Chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

### Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, %da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 10,8 foizga kamayib, 193,7 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar oyida 174,8 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahari (714,5 ming so'm), Yangier shahari (304,3 ming so'm) va Sardoba tumanida (201,4 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 1,6 %ga kamaydi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,3 %ni tashkil etdi.




### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>193,7</b>	<b>89,2</b>
Guliston shahar	714,6	94,6
Shirin shahar	109,4	88,5
Yangier shahar	304,3	88,7
Boyovut tumani	68,4	83,6
Guliston tumani	186,2	78,4
Mirzaobod tumani	146,5	95,4
Oqoltin tumani	105,6	87,7
Sardoba tumani	201,4	81,1
Sayxunobod tumani	81,1	85,7
Sirdaryo tumani	150,9	92,3
Xovos tumani	61,1	80,7

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 %ga kamaydi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 86,7 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 948,2 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,3 %ni tashkil etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston va Sardoba tumanlarida 99,5 %, Sayxunobod tumanida 99,1 %, Xovos tumanida 98,6 %, Oqoltin tumanida 98,5 % va eng past ulush Guliston shahrida 86,3 % qayd etildi.

## 2018 yil yanvar oyida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar oyida ulgurji tovar aylanmasi 71,6 mlrd. so`mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 121,2 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Sardoba tumani 1813,8 %, Boyovut tumani 431,8 %, Guliston tumani 224,8 %, Oqoltin tumani 185,4 % va Sayxunobod tumani 167,6 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,2 %ga o'sdi va 51,2 mlrd. so`mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,4 %ni tashkil qildi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas`ul: S.Xaitmamatov  
(0371) 230-86-16